

## Lessingning “Donishmand Natan” dramasida qahramon nutqi

Dadajonov O. FarDu o‘qituvchisi (PhD)

**Annotatsiya:** Maqolada Lessingning “Donishmand Natan” dramasida qahramon nutqi va uslub muammolari tahlilga tortilgan. Badiiy tahlillar asosida qahramon xarakterini yorituvchi poetik usullar tadqiq etilgan.

**Аннотация:** В статье речь героя драмы Лессинга «Натан Мудрый» и анализируются вопросы стиля. На основе художественного анализа исследованы поэтические приемы, освещающие характер героя.

**Abstract:** In the article, the hero’s speech in Lessing’s drama "Nathan the Wise" and style issues are analyzed. Poetic methods that illuminate the character of the hero have been researched based on artistic analysis.

**Kalit so‘zlar:** Nutq, drama, uslub, adabiyot, hayot, oila, ayol, qahramon, xarakter, jamiyat

**Ключевые слова:** Речь, драма, стиль, литература, жизнь, семья, женщина, герой, персонаж, общество

**Keywords:** Speech, drama, style, literature, life, family, woman, hero, character, society

Nutq va uning inson shaxsiyati bilan bog‘liqlik xususiyatlari haqida mutafakkirlar turli zamonlarda turlicha, ammo mantiqan bir-biriga yaqin fikrlarni bayon etganlar. Mashhur rus adibi Korney Chukovskiy (1882-1969) bu haqda “Nutq har birimizni har qanday pasportdan ko‘ra yaxshiroq ko‘rsatadi,” [1] deydi. Y.V.Gyote (1749-1832) esa bu haqda quyidagi fikrni aytadi: “So‘z davolashdan ko‘ra, tezroq jarohatlaydi.” [2] Shunday ekan, har qanday so‘zni qahramon tilidan o‘rinli ishlatish yozuvchi mahorati va estetik dunyoqarashiga bog‘liq.

Fikrimizni Lessingning “Donishmand Natan” (“Nathan der Weise”, 1779) falsafiy dramasi qahramonlari nutqi va ularga muallif tomonidan berilgan izohlar asosida asoslash mumkin. Dramaning bosh g‘oyasi bo‘lgan o‘zaro tenglik, adolat va haqiqat, diniy bag‘rikenglik orqali insonni ma‘rifatli qilish,

ma'naviy kamolotga yetkazish kabi xususiyatlar qahramonlar nutqi orqali ham ko'rsatib o'tilgan.

Kuzatishlarimiz natijasida dramaning bosh qahramoni, yahudiy, savdogar Natan o'z oilasi xristianlar qo'lida halok bo'lganligiga qaramasdan, xristian diniga mansub qizni asrab oladi. Natan boqib olgan qiz Reha, uyda yolg'iz paytida yong'in chiqadi. Qizni nasroniy diniga mansub ibodatxona ritsari olov iskanjasidan qutqarib qoladi. Qizig'i shundaki, uning o'zini ham sal oldinroq xuddi mana shunday mo'jizaviy tarzda, islom dini vakili sulton Salohiddin o'z ukasiga o'xshashligi bois dorga osilishidan saqlab qolgan edi.

G.E.Lessing "Donishmand Natan" dramasi yaratishda, eng avvalo, qahramonlar ro'yxati va ularning hayoti haqidagi ma'lumotlarni yig'adi va o'rganib chiqadi. Asarda qahramonlar har xil toifaga mansubligi, xarakterlarining turli-tumanligi bilan bir-biridan farq qiladi: savdogar Natan, Ritsar, sulton Salohiddin, patriarx-cherkov peshvosi, kichik rohib, darvesh, xizmatkor – Dayya va boshqalar. Bu qahramonlarning siymosini tasvirlashda G.E.Lessing bor mahorati bilan ijodiy yondashdi va ularni xalq ruhiga yaqin qilib tasvirladi. [3]

Dunyodagi uchta dinga mansub bo'lgan kishilar o'rtasidagi mana shunday tasodifiy voqealar halokatli oqibatlariga olib kelishi mumkin edi. Biroq, pirovardida barcha dinlar qardosh ildizlariga ega ekanligini anglash natijasida ziddiyatlar hal etiladi. "Donishmand Natan" asarida dinlararo totuvlik, tolerantlik g'oyalari asosiy planda kuzatilgan bo'lsa-da, qahramonlar nutqi va uslub muammolari asarni ilmiy jihatdan tahlil qilishga undaydi.

Dramada tolerantlik g'oyalarini ifodalovchi fikrlar bosh qahramon Natan, Rohib bilan suhbatida keltirib o'tilgan.

Natan:

Ha! Ihr wisst, wie viel fester

Ich nun mich an Euch drängen werde. – Kommt,

Wir müssen, müssen Freunde sein! – Verachtet

Mein Volk so sehr Ihr wollt. Wir haben beide

Uns unser Volk? Nicht auserlassen. Sind  
Wir unser Volk? Was heißt denn Volk?  
Sind Christ und Jude eher Christ und Jude,  
Als Mensch? Ah! wenn ich einen mehr in Euch  
Gefunden hätte, dem es genügt, ein Mensch  
Zu heißen! [4]

Natan:

Yo‘q, yo‘q! Endi yoningizdan ketmasman sizning!  
Keling, do‘st bo‘laylik! Mayli xalqimni  
Jiningizdan battar siz yomon ko‘ring.  
Lekin uni tanlab olmagaymiz biz.  
Qolaversa, siz, men-hali xalqasmiz.  
Xalq, o‘zi nima u? Juhud, nasroniy-  
Aslida har biri inson emasmi?  
O, xursand bo‘lardim men sizda ko‘rsam  
Inson ekanidan mamnun jo‘mardni. [5]

Muallif dramada qahramon nutqi orqali uning ruhiyatini ham ochib beradi. I.Rustamova ta’kidlaganidek, “drama keskin vaziyatlar, ruhiy kechinmalar kurashidir, shu sababli dramada qahramon ruhiy olamini tasvirlash asosiy masalalardan biri hisoblanadi.” [6] Demak, asarda muallif qahramon ruhiy olamining emotsional hususiyatlari orqali kitobxonga ta’sir o‘tkazadi. Lessing Natan boshiga tushgan musibat va o‘ziga bo‘lgan nohaqliklarni so‘zlar ekan, inson irodasi naqadar kuchli ekanligiga ishora qiladi. “Donishmand Natan” dramasida tasvirlangan qahramonlar – yahudiy, nasroniy va islom dini vakillari bir sahnada ishtirok etib, drama oxirida bir oila qavmlari bo‘lib birlashadilar. Quyidagi monologda dramaturg chinakam bag‘rikenglik g‘oyalarini ilgari suradi.

Natan:

Men qaytdim yaqinda uzoq safardan,  
Bergan qarzlarimni yig‘ib, o‘yladim:

Ortiqcha emasmi menga shuncha pul?  
Shundoq zamonlarga etib keldikki,  
O‘ylamoqlik kerak hamma jihatni.  
Zero shuncha pulni qandoq saqlay men?  
Va keldi miyamga shu fikr: axir,  
Yurt urush xavfida, urush degani –  
Kutilmagan sarflar, chiqimlar...Balki  
Sen ham nimagadir muhtojsan.

Natan donolik bilan fikr yuritib, sultonga mamlakat uchun qayg‘urishini, u ham fuqaro sifatida yurt ravnaqini o‘ylashini tushuntiradi. Dramada Natan obrazi bilan birgalikda Salohiddin timsolida sahiy, ochiqko‘ngil inson talqin qilingan. G‘arb uyg‘onish adabiyotida esa bunday obrazlarning bo‘lishi noodatiy holat bo‘lib tuyiladi. Chunki asarda deyarli teng ikki ijobiy obraz mavjud bo‘lib, Natan timsoli Salohiddin obraziga nisbatan bir bosh balandda bo‘lib ko‘rinadi.

Dramaturg jamiyatdagi nopokliklardan to‘ygani holda “Donishmand Natan” asarida dinlar va ular o‘rtasida kelib chiqayotgan ixtiloflarga o‘z munosabatini bildirdi. Shu ma’noda Lessing qahramonlar nutqi orqali kitobxon ongiga diniy bilimlar bilan birgalikda, bag‘rikenglik g‘oyalarini ham keng ko‘lamda uqtirib o‘tgan. Har bir personajning nutqiy xarakteristikasidan tortib, ularning ruhiy olamiga ham e’tibor qaratadi.

Darhaqiqat, nutqiy xarakteristika, dastavval, personajlarning o‘zlarini o‘zlari va bir-birlarini tavsiflovchi vositadir. Shu bilan birga, u oddiy so‘z emas, balki harakat hamdir. Har bir replika (personaj aytgan jumla) personajlar munosabatiga, albatta, oz bo‘lsa-da, o‘zgarish kirgizadi va asar bosh g‘oyasining shakllanishini rivojlantiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, nemis tanqidchisi va san’at nazariyotchisi Gottxold Efraim Lessing faoliyati davomida gumanizmni qo‘llab-quvvatlaydi va shaxslararo bag‘rikenglik tushunchasini “Donishmand Natan” dramasi markaziga qo‘yadi.

## ADABIYOTLAR

1. Корней Чуковский. Цитаты из книги Живой как жизнь.  
www.livelib.ru
2. Йоханн Вольфганг Гёте. Ҳикматлар хазинаси. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б. 11.
3. Маҳмудов А. Г.Э.Лессинг ижодида Шарқ ва Ғарб воқелигининг муштарак талқини. филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. – Бухоро. 2020. – Б. 97.
4. Lessing G.E. Gesammelte Werke. II-Band. Nathan der Weise. – Berlin. AufbauVerlag, 1954. – S. 378.
5. Лессинг Г.Э. Донишманд Натан. – Тошкент. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2005. – Б. 13.
6. Рустамова И.”Ўзбек драматургиясида қаҳрамон муаммоси. (70-80-йиллар). фил.фан. номз. дисс. автореф. –Тошкент, 1999. – Б. 13.
7. Dadajonov O. Nemis ma’rifatparvarlik dramasida qahramon xarakteri talqini/ O‘zMU Xabarлари, 202-204 betlar. Toshkent-2022, 1/3. 3 bet.
8. Dadajonov O. EMERGENCE STAGES OF UZBEK DRAMA/ INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY, IBAST ISSN: 2750-3402, Volume: 3, Issue: 4 April 2023. SJIF Impact Factor: 8.2. Germaniya, 380-384 betlar. 5 bet.
9. Dadajonov O. STAGES OF DEVELOPMENT OF THE MODERN DRAMA/ ACADEMIC INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTI-DISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION Hosted from Pittsburgh, USA.97-99 betlar. 3 bet.
10. Kasimov, A. A. (2020). PECULIARITIES AND SIMILARITIES OF SYMBOLIC EXPRESSION IN THE NOVELS “THE PICTURE OF DORIAN GRAY” AND “THE MAN AT THE MIRROR”. *Theoretical & Applied Science*, (5), 590-592.
11. Qosimov A. G‘arbiy Evropa romantizm adabiyotida mifologizmlardan foydalanish xususida/ O‘zMU XABARLARI,227-229 betlar. Toshkent-2022, 1/3. 3 bet.

12. Axmadjonov Nurbek f.f.b.f.d (PhD) Poetonimlarning badiiy asarlarda qoʻllanishi. Ўзбек тили тараққиёти ва халқаро ҳамкорлик масалалари. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари 19.10.2023. 352-357 бетлар.

13. 14. Nurbek Akhmadjonov Signs of a precedent name (example of the name “Berliner Mauer”) "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 (SJIF) January 2023 / Volume 4 Issue 1